

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI  
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG  
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN FOYDALI  
QAZILMALARNI QAZIB OLISH FANIDAN MALAKA TEST SINIVI  
TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

**Toshkent – 2026**

# **O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN FOYDALI QAZILMALARNI QAZIB OLISH FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

## **I. Maqsad**

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Foydali qazilmalarni qazib olish fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

## **II. Me’yoriy asoslar**

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

## **III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari**

### **Foydali qazilmalarni qazib olish**

1. Konchilik ishi asoslari;
2. Foydali qazilmalarni ochiq usulda qazib olish;
3. Foydali qazilmalarni yer osti usulida qazib olish;
4. Yer osti lahimlarini qazib o‘tish va mustahkamlash ishlari;
5. Ochiq kon ishlari jarayonlari va texnologiyasi;
6. Kon mashina va uskunalari;
7. Ochiq kon ishlari ishchisi.

#### IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/ r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Konchilik ishi asoslari	Konchilik sanoati va konchilik korxonalari, kon jinslari va foydali qazilmalar to‘g‘risida asosiy ma’lumotlar, foydali qazilma konlarining shakllari va yotish elementlari, foydali qazilmalarning zaxiralari va qazib olish jarayonida yo‘qotilishi kabilarni bilishi	7 ta
2	Foydali qazilmalarni ochiq usulda qazib olish	Foydali qazilma konlarini ochiq usulda qazib olish va uning mohiyati to‘g‘risida tushunchalar, karyer elementlari va ularning parametrlari, ochiq kon ishlarining tabiiy sharoitga bog‘liqligi, ochiq kon ishlaridagi davrlar haqida bilimlarga ega bo‘lishi.	8 ta
3	Foydali qazilmalarni yer osti usulida qazib olish	Foydali qazilma zaxiralarini turkumlash, shaxta va shaxta maydoni, qazib olish bosqichlari, ruda qiymati haqida tushuncha va qazib olishning rentabelligi, konni qazib olishga qo‘yiladigan asosiy talablarni bilishi.	5 ta
4	Yer osti lahimlarini qazib o‘tish va mustahkamlash ishlari	Kon lahimlari turlari va ularning vazifalari, kon lahimlarini o‘tish usullari, kon lahimlari uchun mustahkamlagichlar va mustahkamlagich materiallarning turlarini bilishi.	6 ta
5	Ochiq kon ishlari jarayonlari va texnologiyasi	Foydali qazilma konlarini ochiq usulda qazib olish jarayonlari (kon massasini qazib-yuklashga tayyorlash, qazib-yuklash ishlari, kon massasini tashish va to‘kma hosil qilish), foydali qazilma konlarini ochiq usulda qazib olish tizimlari, foydali qazilmalarni qazib olish texnologiyalarini bilishi.	8 ta
6	Kon mashina va uskunalari	Kon korxonalarida transport vazifalari. Transport mashinalar tasnifi, konveyer transporti, temir yo‘l transporti hamda kon korxonalarida avtomobil transportlarini bilishi,	4 ta
7	Ochiq kon ishlari ishchisi	Ochiq kon ishlari va ularga tegishli asosiy belgilar to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar, ochiq usulda qazib olinadigan konlarni yotish sharoitlari, kon-texnik ma’lumotlar va karyerning elementlarini bilishi.	2 ta

## V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	<b>Bilish</b>	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20%
2.	<b>Qo'llash</b>	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60%
3.	<b>Mulohaza qilish</b>	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20%

## VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

## VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

## VIII. Imtixon tartibi

*Taqiqlangan vositalar:* imtixon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

*Axloq va intizom:* nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtixon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

## IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Sagatov N.X., Petrosov Y.E., Aripova L.T., M.N.Djabborov. “Ochiq kon ishlari texnologiyasi va kompleks mexanizatsiyalash. O‘quv qo‘llanma. — T.: “Kamalak press”, 2015.
2. B.T.Umarov Kon – qidiruv lahimlarini o‘tish. O‘quv qo‘llanma. — T.: “LESSON PRESS” MCHJ, 2021.
3. G.M.Mirsaidov, T.J.Annaqulov, J.B.Toshov Transport mashinalari. O‘quv qo‘llanma. — T.: “Noshirlik yo‘g‘dusi”, 2015.
4. I.Misliboyev, F.Umarov yer osti konchilik ishlari texnologiyasi. Darslik. — T.: “Yoshlar nashriyoti uyi”, 2020.
5. Sagatov N.X., Kon ishlari asoslari. O‘quv qo‘llanma. -T.: TDTU, 2015 yil.

*\*Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan - to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*